



## HAYOT DAVOMIDA TA'LIM OLISH: YANGI PARADIGMALAR VA KUTILADIGAN NATIJALAR

FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Mirzayeva Dilfroʻz Shirinboyevna

*Payariq tumani 72-umumta'lim maktab psixologi*

### O'QUVCHILAR IJTIMOY INTELLEKTI KOMPONENTLARINING O'ZARO MUNOSABATI DINAMIKASI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'quvchilar ijtimoiy intellekti komponentlarining o'zaro munosabati dinamikasini psixologik tajribalar asosida bayon etilgan. O'quvchilarning muloqotda va ijtimoiy sharoitga moslashuvchanlikka qobiliyatligi hamda insonlarni idrok etish, ular bilan muloqotga kirishimlilikdagi integrallashgan intellektual qobiliyati aniqlangan.

**Kalit soʻzlar:** *o'quvchi, umumiy intellekt, ijtimoiy intellekt, intellekti komponentlari, muloqot, hissiyot, noverbal xulq-atvorni tushunish mezonlari, ijtimoiy faollik.*

“Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson boʻlib kamolga yetishi bilan bogʻliq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning oʻz salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat[1]”.

Yoshlarning zamonaviy kasb-hunarlarini puxta egallashi uchun munosib sharoitlar yaratish, ishbilarmonlik qobiliyatini rivojlantirish dolzarb hisoblanadi. Shuningdek o'quvchilarning intellektual va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarishiga ijtimoiy faollikning o'рни beqiyosdir. Faollik shaxsning ijtimoiy intellekt xususiyatlariga bevosita bogʻliqdir. Ijtimoiy intellekt insonlar o'rtasidagi munosabatlarda sodir boʻladigan xodisalarni prognoz qilish va ularga tayyor turish imkoniyatini beradi hamda psixologik zo'riqishlarga boʻlgan bardoshni mustaxkamlaydi. Hozirgi kunda oʻz mutaxassislik boʻyicha mahoratli boʻlish bilan

birga ijtimoiy munosabatlarga moslashuvchan, boshqalarning kechinmalarini his eta oladigan, ularga o'z ta'sirini o'tkazuvchi, munosabatlarga kirishimli, o'z xatti-harakatlarini boshqalarga moslashtira oladigan shaxs bo'lishini ham taqozo etishi masalasi ko'ndalang bo'lib qoldi.

O'quvchilarning umumiy intellekti tabiatini tadqiq etish, ilmiy jixatdan chuqur tahlil qilish bugungi kun talabidir. Barkamol avlod tarbiyasida, uning intellektual salohiyatini oshirishda va kasbiy shakllanishida ijtimoiy intellektni aniqlash usullarini chuqur o'rganish va dinamikasining xususiyatlarini tahlil etish muximligi ko'rsatildi. Shu sababli bevosita tadqiqot natijalari sharhiga murojaat etaylik. O'quvchilar ta'lim jarayonida umumiy va ijtimoiy intellektni rivojlantirish masalasiga doimo e'tibor qaratishlari lozim bo'ladi. Ularning umumiy intellekti (IQ) darajasi o'rtacha bo'lgani singari ijtimoiy intellektni ifodalovchi mezonlardan "Muloqot ishtirokchisining hissiyoti, fikri va niyatlarini tushunish" bo'yicha ( $3.18 \pm 0.59$ ) o'rtacha kuchli darajani namoyon etdi. Bu esa o'quvchilarning odamlar bilan munosabatni oldindan prognozlashni, voqea-hodisalarning borishini taxminlashga layoqatlari bor, ammo uni rivojlantirish lozim degan xulosani beradi. Agar o'quvchilarda ushbu subtestni yuqori darajada yechish qobiliyati bo'lganda, notanish kishilarni fotosuratiga qaraboq, uning kimligi, shaxsi haqida batafsil tavsif bera olardilar. Afsuski, o'quvchilar ijtimoiy intellektining bu jabhasi o'rtachadan yuqoriroq kamol topgan.

O'quvchilar noverbal xulq-atvorni tushunish bo'yicha ham o'rtachadan yuqori qiymatga ega bo'lganlar ( $3.30 \pm 0.85$ ). O'quvchilar o'zlarini ishchanlik muhitiga tayyorlashga, noverbal signallarni ilg'ashga, odamlarning noverbal muloqotlari yordamida, pozasi, mimikasi va xatti-harakatlariga ko'ra, baholash iqtidorlari asosi borligidan dalolat beradi. Agar o'quvchilar o'zlaridagi ushbu sifatni yuqoriroq darajada shakllantirishga erishsalar, u holda bu ularning faol, stenik, chuqur refleksiyaga, muloqotda insonlarning emotsional holatlariga nisbatan sezgirlikka, o'zlarining his-tuyg'ularini ham tushunishga moyilliklari ortishini bildiradi.

O'quvchilarning qolgan ikkita subtest ko'rsatkichlari, ya'ni verbal ekspressiyani tushunish ( $2.89 \pm 0.55$ ), shaxslararo o'zaro ta'sirlashuvni tahlil etish ( $2.82 \pm 0.95$ ) bo'yicha o'rtachaga yaqinligini o'quvchilar ijtimoiy intellektining ushbu jabhalari hali o'rtacha darajada ham rivojlanmaganligidan dalolat beradi. O'quvchilarning ijtimoiy intellektini baholashga xizmat qiluvchi test mezonlari yordamida ularning o'zaro korrelyatsion munosabatlarini tahlil etishga harakat qilaylik (1-jadval). O'quvchilarning ijtimoiy intellektini baholash mezonlari orasida ijobiy korrelyatsion munosabatlar kuzatilmoqda. O'rtacha qiymat bo'yicha tahlilimizda o'quvchilardagi "muloqot ishtirokchisining hissiyoti, fikri va niyatlarini tushunish" va "noverbal hulq-atvorni tushunish" bo'yicha o'rtachadan yuqori ko'rsatkichlarga egaliklarini korrelyatsion munosabatlar tasdiqladi ( $r=0.399, p<0.05$ ). Demak, o'quvchilar shaxslararo munosabatda intellektual qobiliyatlari birligida umumiy muhitni, suhbatdoshlarni xatti-harakatlari, shaxsiy fazilatlarini, kechinmalarini baholash imkoniyatlari qonuniyat jihatidan bog'liqligi tasdiqlandi

(1-jadval).

**O‘quvchilar ijtimoiy intellekti munosabatlari**

Ijtimoiy intellekt komponentlari	Muloqot ishtirokchisining hissiyoti, fikri va niyatlarini tushunish	Noverbal xulq-atvorni tushunish	Verbal ekspressiyani tushunish	Shaxslararo o‘zaro ta’sirlashuvni tahlil etish
Muloqot ishtirokchisining hissiyoti, fikri va niyatlarini tushunish	1	0,400*	0,358	0,600**
Noverbal xulq-atvorni tushunish		1	0,359	0,620**
Verbal ekspressiyani tushunish			1	0,350
Shaxslararo o‘zaro ta’sirlashuvni tahlil etish				1

\*  $p < 0.05$ ; \*\*  $p < 0.01$

O‘z navbatida, o‘quvchilar “muloqot ishtirokchisining hissiyoti, fikri va niyatlarini tushunish” qobiliyatlarini o‘stirib borsalar, “shaxslararo o‘zaro ta’sirlashuvni tahlil etish”da ham muammolarga duch kelmasliklari ilmiy jihatdan isbotini topmoqda ( $r=0.400, p<0.01$ ). Noverbal xulq-atvorni tushunish qobiliyatini rivojlantirish orqali “shaxslararo o‘zaro ta’sirlashuvini tahlil etuvchanlikni kamol toptirishlari mumkin ekan. ( $r=0.620, p<0.01$ ). Umumiy intellekt natijalari bilan ijtimoiy intellekt miqdorlarini bog‘liqligi ham shaxsning kamolotida ahamiyat kasb etishi tabiiy. Biz o‘quvchilarning ijtimoiy intellekti bilan boshqa intellektlari bilan o‘zaro munosabatlarini o‘rganish uchun barcha metodikalar orasidagi korrelyatsion munosabatlarni aniqlashga erishdik.

Bundan ko‘rinadiki, o‘quvchilarning umumiy intellektiga nisbatan ijtimoiy intellektidagi o‘sish alomatlari yaqqolroq. Uning mezonlari orasida ham nisbiy bo‘lsa-da, o‘zaro bog‘lanishlar mavjud. O‘quvchilarning ijtimoiy intellektini o‘stirishdagi o‘ziga xoslik turmushdagi har xil vaziyatlarni kuzatish, ularga nisbatan o‘z munosabatlarini shakllantirish, ijtimoiy vaziyatlarga mos tarzda hayotiy ko‘nikmalarni kamol toptirishga ehtiyoj sezgan bo‘lishlari mumkin.

Ta’kidlash kerakki, o‘quvchilarning ijtimoiy intellekti mezonlarini bosqichlar bo‘yicha o‘rganishga harakat qilganimizda ham bir qator ijobiy, ilmiy ma’lumotlar qo‘lga kiritildi. Ijtimoiy intellekt natijalari o‘quvchilarda o‘sish holati to‘rtinchi bosqichda yaqqolroq ifodalanishini ko‘rsatdi. Bundan ko‘rinadi, ijtimoiy intellektning rivojlanishini ta’minlash uchun aniq psixologik tadbirlar bilan bir qatorda, o‘quvchilarning o‘zlari u yuzasidan mustaqil izlanish olib borishlari ham zarur.

**XULOSALAR**



- O'quvchilar ijtimoiy faolligini aniqlash uchun psixodiagnostik metodikalari mavjud bo'lib, ularni amaliyotga tatbiq etish shaxsning kasbiy-shaxsiy kamoloti yuzasidan yetarlicha ilmiy-uslubiy ma'lumotlar olishga xizmat qiladi.

-O'quvchilarning intellekti ijtimoiy tabiatini belgilovchi mezonlar umumiy intellekt mezonlariga nisbatan o'zaro korrelyatsion bog'liklarni yaqqolroq hosil qilgan bo'lib, ular sub'ektning jinsiy tafovutlariga ko'ra farqlanishga ega.

-O'quvchilarning shaxslararo munosabatlarida intellektual qobiliyatlari birligida ijtimoiy muhitni, suhbatdoshlarni xatti-harakatlari, shaxsiy fazilatlarini, kechinmalarini baholash imkoniyatlari qonuniyat jihatidan bog'liqligi tasdiqlandi.

- O'quvchi qizlarning ijtimoiy intellekti mezonlari boshqa intellekt ko'rsakichlari bilan bir qator ijobiy munosabatni hosil qila oldi. Bunda muloqot ishtirokchisining hissiyoti, fikr va niyatlarini tushunish qobiliyatiga egalik umumiy intellektning o'sishiga ham, murakkab mantiqiy munosabatlarni tushunishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatib, tushunchalarning muhim va nomuhim jihatlarini farqlay olishni axborotlarni ko'rish orqali qayta ishlash imkoniyatlarining o'sishiga olib kelib, ularning kasbiy va shaxsiy kamolotida o'z -o'zini namoyon etganligidan dalolat beradi.

-Har ikki jins o'quvchilarida ijtimoiy intellektning muloqot ishtirokchisining hissiyoti, fikri va niyatlarini tushunish, noverbal xulq-atvorni tushunish mezonlari bir - biri bilan bog'langanligi singari umumiy intellekt bilan ham ijobiy hamda to'g'ri korrelyatsion bog'liqlikni aks ettiradi.

-Texnologik yondashuv asosida pedagogik faoliyatni tashkil etish individual va ijodiy xususiyatga ega. Shu bilan birga ta'lim va tarbiya jarayonini yo'lga qo'yishda ijtimoiy treninglardan maqsadli foydalanish kasbiy xususiyatlarning shakllanishiga, ijtimoiy va emotsional intellekt turlarining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi omil bo'lib hisoblanadi.

Kasbiy munosabatlar muayyan ijtimoiy-psixologik shart-sharoitda shakllanib, shaxsning ma'naviy salohiyati, umuminsoniy madaniyati, tafakkur darajasi, jamiyat qonunlarini muayyan darajada tahlil eta olish qobiliyati bilan belgilanadi Bu ko'rsatgichlarning qay darajada yorqin yoki sust namoyon bo'lishi izlanishlar jarayonida tadqiq etilib, kasbiy munosabatlar ko'rinishida o'quvchi ijtimoiy intellekti dinamikasida namoyon bo'ldi. Demak, o'quvchilarning ijtimoiy faolligi "Ijtimoiy intellekt" darajasining yuqoriligiga bog'liq.

## ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqi (20.09.2017).
2. Gilford Dj. Tri storony intellekta // Psixologiya myshleniya. Pod red. A.M. Matyushkina. M., 1995.S.433-456.
3. G'oziyev E.G'. O'quvchilarni umumlashtirish usullariga o'rgatish va ularning aqliy taraqqiyoti.- T.:O'qituvchi, 1983.
4. G'oziyev E.G'. Tafakkur psixologiyasi.- T., 1990.
5. Zivert X. Vash koeffitsient intellekta. Testy. - M., 1997. - 164 s.
6. Zivert X. Testirovanie lichnosti / Per. s nem. - M.. 1997. - 198 s.
7. Iskusstvennyy intellekt i psixologiya / Pod. red. O.K.Tixomirova. -M., Nauka, 1996.